


II. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlarga asosan 2025-yilning yanvar-mart oylarida viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini tomonidan hajmi 10 068,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan sanoat mahsuloti fizik hajm indeksi 107,1 foizni tashkil etdi.

2025-yil yanvar-mart oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, hajmi va fizik hajm indeksi



■ ishlab chiqarish hajmi, mlrd so'm.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash bo'yicha ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108,7 foizga o'sishi bilan birga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) 107,6 foizni, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 94,4 foizni, tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash bo'yicha 73,4 foizni tashkil etganligini kuzatish mumkin.

**yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda*


**2025-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini
ishlab chiqarish**

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	10 068,0	107,1
Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	61,6	73,4
<i>ulardan:</i>		
Tog' - kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat	39,5	86,4
Tog' - kon sanoati sohasidagi texnik xizmatlar	22,1	58,7
Ishlab chiqaradigan sanoat	9 278,7	107,6
<i>undan:</i>		
Oziq- ovqat ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	1 884,9	100,4
To'qimachilik, kiyim, teri va unga tegishli mahsulotlari ishlab chiqarish	2 645,2	103,1
Yog'och va po'kak buyumlar , poxol va to'qish uchun materiallar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish	93,7	124,7
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	3,1	38,9
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	3 755,4	112,2
Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	190,5	116,7
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	3,4	4,8 m.
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	430,1	104,9

**yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda*

	<i>mld. so‘m</i>	<i>o‘sinh sur‘ati, foizda</i>
Metallurgiya sanoati	28,2	129,2
Mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta‘mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, treylar, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish	240,0	106,3
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	4,2	178,2
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	649,8	108,7
Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	77,9	94,4

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)
(yanvar-mart)



■	Ishlab chiqaradigan sanoat
■	Tog'-kon sanoati va ochiq konlardan ishlashi
■	Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
■	Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Iqtisodiy tarmoqlar kesimida o‘rganilganda, Tog‘- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2025-yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 61,6 mlrd.so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 foizni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)

Buxoro viloyatida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

2025-yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9 278,7 mlrd.so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 92,1 foizni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan natura ko‘rinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

	<i>O‘lchov birligi</i>	<i>2025-yil yanvar-mart</i>	<i>2024-yil yanvar-martga nisbatan foiz</i>
Benzin	<i>ming tn.</i>	262,9	93,4
Dizel yoqilg‘isi	<i>ming tn.</i>	56,9	103,9
Mazut	<i>ming tn.</i>	14,1	62,3
Kerosin	<i>ming tn.</i>	42,2	105,0
Aroq	<i>ming l. 100,0 foiz spirt</i>	694,8	59,1
Uzum vinosi yoki uzum turpini distillash natijasida olingan spirt nastoykalari, konyak spirtidan tashqari	<i>ming l. 100,0 foiz spirt</i>	1,3	27,3
Uzum vinosi	<i>ming l.</i>	20,1	20,6
Yumshoq bug‘doy va spelta uni	<i>ming tn.</i>	13,6	106,0
Tozalangan o‘simlik yog‘i	<i>tn.</i>	4 072,2	126,9

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2025-yil yanvar-mart</i>	<i>2024-yil yanvar-martga nisbatan foiz</i>
Paxta tolasi	<i>ming tn.</i>	30,5	100,8
Paxta (linti)	<i>tn.</i>	4 382,0	178,4
Paxta chigiti	<i>ming tn.</i>	46,3	95,9
Chigitdan olingan kunjara va boshqa qattiq chiqindilar	<i>ming tn.</i>	19,0	127,7
Soapstoklar (neytrallash jarayoni mahsuloti)	<i>tn.</i>	214,3	102,1
Don ekinlarini qayta ishlashdan hosil bo'lgan kepak, chigit va boshqa chiqindilar	<i>ming tn.</i>	23,4	99,2
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa (ko'p komponentli aralashmalardan tashqari)	<i>ming tn.</i>	0,8	68,8
Chakana savdo uchun qadoqlangan paxtadan yigirilgan ip	<i>tn.</i>	1 651,5	72,9
Yo'l qoplamalari uchun asfaltli aralashmalar	<i>ming tn.</i>	20,6	90,4


Shu bilan birga, oxirgi 5 yilning tegishli davrlari mobaynida un mahsulotlari eng ko'p ishlab chiqarish 2020-yilning yanvar- mart oylariga to'g'ri kelmoqda (2020-yil – 22,0 ming tonna, 2021-yil – 21,9 ming tonna, 2022-yil – 20,6 ming tonna, 2023-yil – 8,6 ming tonna, 2024-yil – 12,8 ming tonna)

O'z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o'tgan yilning mos davriga nisbatan boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish 191,8 foizni, boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish 178,2 foizni, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish 141,6 foizni, yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), poxol va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish 130,6 foizni, metallurgiya sanoati 129,2 foizni tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmog'ining ulushi 0,1 foizni, o'rta-yuqori texnologiyali 1,9 foizni, o'rta-quyi texnologiyali 48,1 foizni, quyi texnologiyali 49,9 foizni tashkil etdi.

Tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish doirasida tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 2025-yilning yanvar-mart oylarida 1 998,7 mlrd.so'mlik mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi.

**2025-yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarishning
texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi,
(foizda)**



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug‘ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog‘liq faoliyatni o‘z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 649,8 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,5 foizni) tashkil etdi.

2025-yil yanvar-mart oylarida sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hamda bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash tizimi hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 8,7 foizga ko‘payganligi kuzatildi.

2025- yilning yanvar-mart oyida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiyasi ishlab chiqarish 96,8 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 72,2 % ni tashkil etdi.

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>2024- yil yanvar- mart</i>	<i>2025-yil yanvar-mart</i>	<i>Farqi +/-</i>
Bug‘ va issiq suv (issiqlik energiyasi), <i>ming g.kal.</i>	355,3	256,7	-98,6
Elektr energiya, <i>mln.kVt.s</i>	473,1	459,0	-14,1

Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig‘ish, qayta ishlash va yo‘qotish)ni o‘z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 77,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 foizni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 5,6 foizga kamayganligi kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 10,4 % ga ko'payishi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 5,1 % ga ko'payganligi kuzatildi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>2024- yil yanvar-mart</i>	<i>2025-yil yanvar-mart</i>	<i>Farqi +/-</i>
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	7 018 431,0	7 745 716,0	727 285,0
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	99 688,0	104 817,0	5 129,0

Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi

Buxoro viloyatida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Buxoro viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Qorovulbozor tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 39,0 foiz ulushi), Buxoro shahri (9,7 foiz), G'ijduvon tumani (9,5 foiz), Romitan tumani (5,9 foiz) hissasiga to'g'ri keladi.

**2025-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab
chiqarish hajmidagi ulushi, foizda**



Hududlarning sanoat salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan izchil choralar natijasida Peshku (2024-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 108,5 foizga), Qorovulbozor (108,1 foizga), Buxoro shahri (107,8 foizga) va G'ijduvon (107,4 foizga) tumanlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining o'sishi ta'minlandi.


Sanoat mahsulotlari va aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari
(2025-yil yanvar-mart)

	<i>Sanoat mahsulotlari, mlrd.so‘mda ¹⁾</i>	<i>2024-yil nisbatan, foizda</i>	<i>Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ming.so‘mda</i>	<i>2024-yil nisbatan, foizda</i>
Buxoro viloyati	10 068,0	107,1	4 840,6	105,4
Buxoro sh.	977,3	107,8	3 249,4	105,8
Kogon sh.	363,9	106,6	5 549,8	105,3
<i>tumanlar</i>				
Olot	202,4	106,2	1 910,0	104,8
Buxoro	251,9	102,3	1 383,9	100,5
Vobkent	274,0	101,1	1 808,9	99,4
G‘ijduvon	956,2	107,4	2 916,9	105,8
Kogon	509,3	102,3	5 888,5	100,3
Qorako‘l	222,5	107,2	1 274,9	105,7
Qorovulbozor	3 927,6	108,1	192 691,1	105,8
Peshku	344,4	108,5	2 576,8	106,6
Romitan	591,3	101,0	3 848,0	99,6
Jondor	289,3	100,8	1 530,0	99,1
Shofirkon	241,4	103,3	1 280,4	102,3

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Qorovulbozor tumanida (192 691,1 ming so‘m) va Kogon tumanida (5 888,5 ming so‘m) o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (4 840,6 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

**yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda*

**Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari tovarlari ishlab chiqarish
hajmi, ming so'mda
(2025-yil yanvar-mart)**




Hududlar kesimida aholi jon boshiga o'rtacha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining yuqori o'sish sur'atlari Buxoro shahrida (2024-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 105,8 foizga), G'ijduvon tumanida (105,8 foizga) va Qorovulbozor tumanida (105,8 foizga) kuzatilgan bo'lsada, faqatgina Jondor (99,1 foizga) tumanida o'sishning past sur'ati kuzatildi.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik subektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 124,4 foizga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi esa 34,8 foizni tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Jondor (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 83,0 foiz), Shofirkon (77,6 foiz), Kogon (74,6 foiz) va Vobkent (65,5 foiz) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kam ulush G'ijduvon (33,2 foiz), Romitan (31,3 foiz) hamda Qorovulbozor (3,4 foiz) tumanlari kuzatildi.

**Hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari
ishlab chiqarishdagi ulushi, foizda
(2025-yil yanvar-mart)**



***Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni
mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi***

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 125 ta loyiha bo'yicha 1 998,7 mlrd.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, yanvar-dekabr oylarida 6 651,7 ming AQSH dollari miqdorida mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi.


**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni
mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari
(yanvar-mart)**

	2024-yil	2025-yil
Loyihalar soni, birlik	155	125
Korxonalar soni, birlik	142	110
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	1 441,9	1 998,7
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSH doll.	7,8	6,7
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	149	148

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1 143,0 mlrd. soʻmlik mahsulot ishlab chiqarilgan. Oʻtgan yilda qoʻshma korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 11,0 foizni tashkil etgan boʻlsa, hisobot davrida bu koʻrsatkich 12,5 foizni tashkil etgan holda oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 1,5 bandga koʻpaygan.


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, foiz



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 3 111 ta sanoat korxonalari faoliyat koʻrsatayotgan boʻlib, ulardan Buxoro shahriga 683 tasi, Gʻijduvon tumaniga 377 tasi, Kogon tumaniga 308 tasi, Jondor tumaniga 259 tasi, Romitan tumaniga 251 tasi, Buxoro tumaniga 229 tasi, Vobkent tumaniga 219 tasi, Shofirkon tumaniga 172 tasi, Peshku tumaniga 152 tasi, Olot tumaniga 143 tasi, Qorakoʻl tumaniga 136 tasi, Kogon shahriga 127 tasi va Qorovulbozor tumaniga 55 tasi toʻgʻri keladi.

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik
(2025-yil yanvar-mart)



2025-yil yanvar-mart oylarida viloyatda 83 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan Buxoro shahriga 19,3 foizi, Kogon tumaniga 15,8 foizi, Romitan tumaniga 12,1 foizi, Peshku tumaniga 9,6 foizi, Qorako'l tumaniga 8,4 foizi, G'ijduvon tumaniga 7,2 foizi, Kogon shahriga 6,0 foizi, Vobkent tumaniga 6,0 foizi, Qorovulbozor tumaniga 4,8 foizi, Olot tumaniga 3,6 foizi, Jondor tumaniga 3,6 foizi, hamda Shofirkon tumaniga 3,6 foizi to'g'ri keladi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Sanoat bu – xom ashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi – korxonadan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo'ljallangan, nosanoat bo'linmalarga va kapital qurilishga mo'ljallangan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi: ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar).

Natura ko'rinishida sanoat ishlab chiqarishi hajmi – boshqa korxonalariga jo'natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan, korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o'z ichiga oladi, ya'ni yalpi mahsulot.

Mahalliyashtirish darajasi – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; mahalliyashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to'lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo'lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi.

Mahsulot sotish hajmi – savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno).

Milliy valyutada eksport qilinadigan mahsulotlarning qiymati – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha hisob-kitob qilgan holda to'ldiriladi.

Tayyor mahsulot - sotish uchun mo'ljallangan va texnik hamda sifat talablariga muvofiq keladigan, tashkilotning ishlab chiqarish siklining pirovard natijasi bo'lgan tovar